

PAPER

## TILNING JAMIYAT HAYOTIDAGI AHAMIYATI VA VAZIFALARI

Azimova Sitora Shokirovna<sup>1,\*</sup> and Bozorov M<sup>2</sup>

<sup>1</sup>Samarqand davlat chet tillari instituti “Ingliz tili filologiyasi va tarjimashinoslik” fakulteti 1-bosqich magistranti  
and <sup>2</sup>Ilmiy rahbar

\*sazimova@gmail.com

### Abstract

Bu maqolaga tilning jamiyat hayotidagi o'rni va insoniyat tarixida muhim ahamiyat kasb etganligi yoritilgan, ijtimoiy taraqqiyot jarayonida aynan tilning muhim ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatilgan. Shuni ham tan etirof etish kerakki, yagona til ostida birlashgan ma'lum bir odamlar guruhi jamiyatni tashkil etadi. Jamiyat a'zolari o'zlarining fikrlarini bir til orqali bir-birlariga yetkazadilar buning natijasida o'z ehtiyojlar yo'lida turli xil g'oyalarni ilgari suradilar va kashfiyotlarni amalgga oshiradilar. Bu jamiyatning yanada rivojlanishiga olib keladi.

**Key words:** til funksiyasi, kommunikativlik, nutqiy akt, mikrolingvistika, makrolingvistika.

### Kirish

Qadim zamonlardan til insonlar o'rtasidagi ko'rinnmas, ammo katta ahamiyat kasb etadigan aloqa vositasi bo'lib kelgan va hozirgi davrda ham ayni shu til orqali jamiyat yuksaladi, rivojlanadi hamda tarqqiy topadi. Til bu ilohiy ne'mat bo'lib, insonning ichki olamini real hayotda modellashtirish vazifasini o'taydi. Tabiiyki idrok olamdag'i barcha hodisalarни tahlil qilish, hamda xulosa chiqarish qobiliyatiga ega bo'lib, ehtiyojni qondirishga bo'lgan hissiyor ham ayni idrokda paydo bo'lib tilda o'z shaklini namoyon etadi. Yani til tafakkuridagi fikrlarni shakllantirish vazifasini o'taydi.

### Adabiyotlar tahlili va metodologiyasi

Til tarixiga nazar soladigan bo'lsak, albatta insoniyat rivojlanishining dastlabki davrlariga to'g'ri keladi. Chunki til muloqotning asosiy vositasi bo'lib, insonlarni jamiyat sifatida shakllanishiga asosiy poydevor vazifasini o'taydi. Ibtidoiy davrlarda odamlar yakka-yakka tartibda yashagan, chunki ularni bir-biri bilan bog'lovchi vosita ya'ni til mavjud bo'lmagan. Keyinchalik odamlar avval imo-ishora orqali, keyinchalik har xil ovoz signallari va asta-sekinlik bilan insoniyatni bog'lovchi tizim, til, vujudga kelgan. Til insoniyat rivoji yo'lida katta ahamiyatga ega bo'lib, u insonlarni fikrini bayon qilishi, hamda tajriba almashishiga muhim

rol o'ynaydi. Jamiyat taraqqiyotiga zamin yaratib beruvchi til har doim insoniyatning ehtiyoj markazida bo'ladi. Til uzining tarixi va rivojlanish bosqichlariga ega bo'lib, zamon va makon o'zgarishi tilga ta'sir etmay qolmaydi. Ya'ni inson ongi qancha o'sib boraversa, til ham shu yo'lida toblanib ketaveradi. Insoniyat tilga qancha chuqur ahamiyatga ega hodisa sifatida qarasa ham, uming asosiy funksiyasi ya'ni kommunikativ vazifasi o'zgarmas hodisa bo'lib qolayveradi. “Tilning eng asosiy funksiyasi kommunikativ (lotincha communication-aloha)lik hisoblanadi” deb ta'kidlaydi Bozorov M. [1.69] Til birinchi navbatda aloqa quroli bo'lib, insonlar o'rtasida fikr almarshish yo'lida xizmat qiladi. Til hodisasi bu inson his-tuyg'ulari va uning ongida yaratilgan g'oyalarni borliqqa ko'chishi aynan shu vosita orqali amalda paydo bo'ladi. Yani nazariya bir-inchi ongda paydo bo'ladi va til vositasida shakllanib real hayotga ko'chadi. Bu aloqa vositasi nafaqat fikrlarni reallashtiradi, balki ta'rixiy hodisalar va tajribalarni avloddan avlodga yetib borishida xolisona xizmat qiladi. Til misoli xotira bo'lib u orqali barcha yangi topilmalar va kashfiyotlar saqlanib kelajak avlodga yetkaziladi. Til barchaga birdek xizmat qilib, u odam tanlamaydi. Til bu mafkurani borliqdagi yaqqol ko'rinishi hisoblanadi. So'zlovchi va tinglovchi o'rtasida aniq maqsad va niyatiga qarab ularning muloqot jaronyoni bir-biridan farq qiladi va bu jarayon nutqiy aktida uch fazada namoyon bo'ladi : 1) Til vositasidan foydalanadigan nutqiy akt; 2) So'zlovchining niyati va maqsadi jihatidan nutqiy akt; 3) Nati-

jalar va xulq-atvoriga ta'sir qilish jihatidan nutqiy aktl;[1;69]. Ya'ni tilning asosiy vazifasi aloqa manbai hisoblansa, uning usullari ham o'ziga xos bo'lib, ayni shu jarayon muloqotning qay darajada samarali ekaligini anglash qiyin emas . Mario Pie takidlaganidek, til bu maqsadli ravishita ishlatilinadigan aloqa vositasi ma'lum bir jamiyat tomonidan, agar jamiyatning ongi o'zgarsa uning tili ham o'zgaradi va natijada avvalgi til o'z qadr-qiymatini yuqotadi [2;303]. Yagona til ostida birlashgan odamlar to'dasi millat, deb ataladi, millat esa jamiyatdan tashkil topgan bo'ladi. Agar jamiyatning asosiy tili yuqolib borsa, jamiyatning tanazzulga yuz tutganidan dalolatdir. Demak til bu nafaqat aloqa vositasi, balki ma'lum bir shaxslarni yagona bir hodisa orqali birlashtiruvchi omil hamdir. Nutq esa, ma'lum, birqancha nozik qirralari bilan tildan farq qiladi. Ko'p holatlarda til va nutq tushunchasi bir xil, deb tushuniladi, ammo til bu uslub, nutq esa shu uslubni amalda namoyon bo'ladigan va tashqi olamda yuzaga chiqaradigan alohida hodisadir. Ya'ni til nutqsiz rivojlanmaydi va amalda o'z vazifasini bajara olmaydi. Nutq faoliyati ikki jihatlarga bo'linadi: Individuel-ruhiy; Obyektiv- ijtimoiy;[3;2]. Biz individual nutqni bashorat qila olmaymiz, chunki u inson ichki kechinmalardan iborat bo'lib, uning qachon, qanaqa nutqiy faoliyat olib borishi mutlaqo shaxsiyidir, ammo ijtimoiy nutq esa, inson ma'lum jamiyat qatlamlari bilan o'ziga xos munosabat bildiradi va bu hodisa nutq madaniyatiga ham aloqadorligini bildiradi. Nutq madaniyatni insonning jamiyatdagi mavqeiga qarab muloqot qilish kerakliliginis isbotlab beruvchi omillardan biridir. Inson o'zidan kattalarga hurmat, kichiklarga izzat, do'stlarga samimiyl muloqot hamda mehmonlarga yuqori darajadagi ehtirom bildirishi lozim. Bu esa tafakkuriy madaniyatning borliqdagi aksi sanaladi.

## Natijalar va muhokama

Til sohasi juda keng, misoli tubsiz ummon, uni o'rganish esa ummondan mayda baliq tutishdekdir. Dastlab tilni o'rganan ekanmiz uni ikki guruhga, ya'ni mikrolingvistika va makrolingvistikaga ajratish lozim[4;5]. Mikrolingvistika tilni faqat ichki tomonda o'rgansa, makrolingvistika esa uni boshqa fanlar bilan qo'shilgan holatda, ya'ni keng ko'lamda o'rganadi. Tilning ichki qismi deganda har bir yaratiladigan gap fonetika, leksika va sintaksis funksiyalari orqali tahlil qilinadi. Tildagi punktuatsiya bo'limi esa his-hayajonni yozma ko'rinishda bayon etadi. Ammo shu joyda quyidagi savol yuzaga keladi. Xo'sh, tildagi barcha so'zlar qay tarzda vujudga kelgan? Narsalarning nomlari qaysi jihatiga ko'ra nomlangan? Albatta manbalarda aniq bir dalil, isbot yo'qligiga qaramay olimlar bu savolga quyidagicha javob qaytarishgan: Inson narsa va hodisalarning xususiyatiga qarab, kelishib nomlagan, va natijada muloqot usuli vujudaga kelgan. Keyinchalik o'rta asrlarga kelib til ichki tomonlama sinchkovlik bilan o'rganila boshlagan va tilshinoslik fani vujudaga kelgan. Dastlabki yozma manbalar ham faqat belgi va suratlardan iborat bo'lgan va garchi yozuv til paydo bo'lgandan keyin bir necha ming yillardan so'ng vujudga kelgan bo'lsada, yaratilish uslubi bir xil bo'lgan va ayni shu qo'lyozmalar bunga yaqqol isbot tarzida paydo bo'ladi. Til bu insoniyatni aql bovar qilmas darajada yuksalib taraqqiyot bosqichiga erishishda bosh omil hisoblanadi, chunki aynan shu til orqli insonlar fikrlarini bir birlari bilan bo'lishgan holatda yangi g'oya yaratib ehtiyojlarini qondirish usullarini o'ylab topishadi. Misol uchun afrikalik bolaning elektr energiyasiz yashash tarzini o'zgartirish maqsadida shamoldan elektr olish usulini oddiy bir fizika darsidan o'rganib kashf qilgan, natijada butun bir qishloq aholisi elektr bilan ta'minlangan. Inson til orqli o'zidagi bebaaho g'oyalari va kashfiyotlarini amalga oshirish bilan birgalikda ularni kelajak avlodga qoldiri imkoniyatiga ham ega bo'ladi. Til paydo bo'lgan vaqtidan boshlab to hozirgi kungacha o'zining shaklini hamda xususiyatini doimiy tarzda o'zgartirib borgan. Ba'zi tillar esa butkul unutilib jamiyat orasidan yuqolib borgan. Bunga eski qo'lyozmalar va topilmalar yaqqol misol bo'la oladi. Tilning muomaladan chiqib

ketishiga quyidagi uch omil sabab bo'ladi:

- Xalqning fikr almashish vositasi bo'lishdan to'xtash;
- Unda gaplashuvchilarning yo'q bo'lib ketishi;
- Tarixiy, ijtimoiy va madaniy sabablari.[5,4] Bundan yaqqol ko'rinish turibtiki, til bu jamiyat poydevori, jamiyatning davomiyligi esa tilning umrini belgilovchi unsurdir. Ya'ni jamiyat yagona til birligisiz, til esa ma'lum bir jamiyatsiz paydo bo'la olmaydi.

## Xulosa

Xulosa qilib shuni aytish joizki, til bu insoning ichki kechinmalari va fikrlarini borliqda aks etirishga xizmat qiladigan bebaaho kashfiyotdir. Ba'zi bir olimlar tilning yaratilishi insoniyatning ma'lum bir evalutsion davriga to'g'ri keladi, deb fikr yuritishsa, boshqa bir ilm namoyandalari tilning yaratilishi ilohiy, deb tan olishgan. Bir tasavvur qilib ko'ring, muloqot quroli bo'lmish til insoniyat ta'rixida paydo bo'lmaganda edi, tabiatning yovvoli qatlam qismida qaysi bir hayvon yoki jonzot rolida yashagan bo'lar edik. Bundan kelib chiqadiki tilning paydo bo'lishi bu insonlarning o'zligini topishda va anglashda yordam beradigan va dunyoda o'z mavqeい hamda o'rniha ega oily mayjudot sarasiga kirishda asosiy omillardan biri ekanligini tan olmasdan iloj yo'q.

## Adabiyotlar

1. "Til Madaniyat tarjima va muloqot" Respublika ilmiy-amaliy konferensiya Samarqand 2016yil 16-17 noyabr – M . Bozorov 69-bet
2. "THE ROLE OF LANGUAGE IN SOCIETY" ILIYA KHURSHEED- 303-bet2023 JETIR volume 10 issue 8
3. "Tilning jamiyatdagi vazifasi" – Journal of pre-school education 2023 Azimova Diyora – 2 bet
4. Tilshunoslikga kirish .M.Irisqulov 1992 Indiana Universiteti- 5 bet
5. Arxiv.uz "Tilning taraqiyot bosqichlari" – 4 bet